

## **MOTIVASIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING SHAXS FAOLIYATIDA SHAKLLANISHI**

**Temirova Nafosat Baxriddin qizi**

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 25\_02 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20236744>


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada motivatsiya tushunchasining psixologik mazmuni, uning inson faoliyatidagi o'rnini hamda rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Motivatsiyaning ontogenez jarayonida shakllanishi, inson ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, Z. Freyding psixoanalitik nazariyasi, A. Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi hamda Deci va Ryanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi asosida motivatsiyaning turli ko'rinishlari izohlanadi. Motivatsiyaning ta'lim jarayonidagi, shaxs rivojlanishidagi va kundalik hayotdagi ahamiyati real misollar asosida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Motivatsiya, ehtiyoj, qiziqish, faoliyat, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ontogenez, psixoanaliz, ehtiyojlar ierarxiyasi, o'z-o'zini belgilash nazariyasi, shaxs rivojlanishi, emotsiya, xulq-atvor

### Kirish

Psixologiya fanida motivatsiya inson faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Insonning har qanday xatti-harakati, maqsad sari intilishi, bilim olishga yoki mehnat qilishga bo'lgan qiziqishi ma'lum motivlar asosida yuzaga keladi. Motivatsiya shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari va ichki intilishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli motivatsiya muammosi umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya va ijtimoiy psixologiyada eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson faoliyati faqat tashqi omillar ta'sirida emas, balki ichki ruhiy ehtiyojlar natijasida ham shakllanadi. Ayniqsa, yosh avlodni ta'lim olishga, kasb egallashga va jamiyatda faol bo'lishga undashda motivatsiyaning o'rnini nihoyatda katta. Motivatsiya yetarli bo'lmagan sharoitda insonning bilim olishga bo'lgan intilishi sustlashadi, faoliyati samarasiz bo'ladi. Shu bois psixolog olimlar motivatsiyaning tabiati, rivojlanish mexanizmlari va inson psixikasidagi rolini chuqur tadqiq qilganlar.

“Motivatsiya” termini lotincha “movere” — “harakatga keltirmoq” degan ma'noni bildiradi. Psixologiyada esa motivatsiya insonni ma'lum faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar yig'indisi sifatida talqin etiladi. Motivatsiya insonning maqsad sari harakat qilishini, qiyinchiliklarni yengishini va faoliyatni davom ettirishini ta'minlaydi. Motiv tushunchasi motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Motiv — bu insonni faoliyatga undovchi sababdir. Masalan, talabaning yaxshi baho olish istagi, kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lish maqsadi yoki ota-onasining ishonchini oqlash intilishi o'qishga bo'lgan motivlar hisoblanadi.



M

otivatsiya ikki asosiy turga bo'linadi:

Ichki motivatsiya — insonning faoliyatdan o'zi zavq olishi, qiziqish asosida harakat qilishi.

Tashqi motivatsiya — mukofot, maqtov, jazodan qochish yoki ijtimoiy talablar asosida yuzaga keladigan motivatsiya.

Ichki motivatsiya inson faoliyatini yanada barqaror va samarali qiladi. Chunki bunda shaxs faoliyatni majburiyat sifatida emas, balki ehtiyoj sifatida amalga oshiradi. Motivatsiyaning ontogenezda shakllanish bosqichlari

Ontogenez — insonning tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha bo'lgan psixik rivojlanish jarayonidir. Motivatsiya ham yosh bosqichlariga qarab rivojlanib boradi.

Go'daklik davri: Bu davrda biologik ehtiyojlar asosiy o'rinni egallaydi. Bola ochlik, xavfsizlik va mehrga ehtiyoj sezadi. Motivatsiya asosan fiziologik ehtiyojlar bilan bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha yosh davri: Bolada o'yin faoliyati yetakchi faoliyatga aylanadi. Shu davrda qiziqish, maqtovga intilish va kattalarga taqlid qilish motivlari shakllanadi. Bola maqtov eshitish uchun topshiriqlarni bajarishga harakat qiladi.

Kichik maktab Yoshi: Ta'lim faoliyati asosiy o'ringa chiqadi. Bilim olishga bo'lgan qiziqish, o'qituvchi va ota-onaning bahosi motiv sifatida namoyon bo'ladi. Shu davrda tashqi motivatsiya kuchli bo'ladi.

O'smirlik davri: O'smirda mustaqillik, tengdoshlar orasida obro' qozonish, o'zini namoyon qilish motivlari rivojlanadi. Emotsional holatlar kuchayadi va motivatsiya murakkablashadi.

Yetuklik davri: Kasbiy muvaffaqiyat, oilaviy barqarorlik, jamiyatda o'z o'rnini topish motivlari ustun bo'ladi. Inson o'z maqsadlarini ongli ravishda belgilaydi va ularga erishishga intiladi.

**QIROL BO'LIB TUG'ILINMAYDI.  
QIROLGA AYLANILADI.**



**Xech qachon  
Taslim bo'lmang.**



Fr

**eydning motivatsiya haqidagi nazariyasi**

Mashhur avstriyalik psixolog va psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd inson xulq-atvorining asosida biologik instinktlar yotadi deb hisoblagan. Uning fikricha, inson faoliyatini asosan ongsiz ehtiyojlar boshqaradi.

Freyd ikki asosiy instinktni ajratgan:

Hayot instinkti — Eros

O'lim instinkti — Tanatos

Eros insonni yashashga, rivojlanishga va ijob qilishga undaydi. Tanatos esa tajovuzkorlik va buzuvchi harakatlar bilan bog'liqdir. Freyd nazariyasiga ko'ra, insonning ko'plab xatti-harakatlari bolalikdagi kechinmalar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, bolalikda yetarli mehr ko'rmagan inson kattaligida doimo e'tibor va tan olinishga ehtiyoj sezishi mumkin. Psixoanalitik yondashuv motivatsiyaning chuqur psixologik ildizlarini tushuntirib beradi. Biroq bu nazariya biologik omillarni haddan tashqari kuchaytirgani uchun ayrim olimlar tomonidan tanqid qilingan.

Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi: Amerikalik psixolog Abraham Maslow motivatsiyani inson ehtiyojlari orqali tushuntirgan. U ehtiyojlarni piramida shaklida tasniflagan.

Maslou nazariyasiga ko'ra ehtiyojlar quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Fiziologik ehtiyojlar
2. Xavfsizlik ehtiyoji
3. Muhabbat va ijtimoiy ehtiyojlar
4. Hurmat va e'tirof ehtiyoji
5. O'zini namoyon qilish ehtiyoji

Masalan, och qolgan inson avvalo ovqat topishga harakat qiladi. Uning boshqa maqsadlarga e'tibori kamayadi. Asosiy ehtiyojlar qondirilgandan keyingina inson yuqori darajadagi maqsadlarga intiladi. Maslou nazariyasi pedagogika va boshqaruv psixologiyasida keng qo'llanadi. Chunki u inson faoliyatining ehtiyojlar bilan bog'liqligini aniq ko'rsatadi.

Deci va Ryanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi: Amerikalik psixologlar Edward Deci va Richard Ryan motivatsiyani ichki va tashqi omillar asosida izohlaganlar. nazariyasiga ko'ra, insonning samarali faoliyati uch asosiy psixologik ehtiyoj bilan bog'liq:

1. Mustaqillik ehtiyoji

2.Kompetentlik ehtiyoji

3.Ijtimoiy yaqinlik ehtiyoji

Agar inson o'zini erkin his qilsa, o'z qobiliyatiga ishonsa va atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo'lsa, uning ichki motivatsiyasi kuchayadi. Masalan, o'quvchiga mustaqil fikr bildirish imkoniyati berilsa, uning darsga qiziqishi ortadi. Aksincha, doimiy bosim va majburlash ichki motivatsiyani pasaytiradi. Bu nazariya zamonaviy ta'lim tizimida juda muhim hisoblanadi. Chunki u o'quvchilarni majburlash emas, balki qiziqtirish orqali o'qitish zarurligini ko'rsatadi.

Motivatsiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. Ta'lim jarayonida motivatsiya o'quv faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchi bilim olishga faol intiladi, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajaradi va mustaqil fikrlashga harakat qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish uchun:

1. qiziqarli metodlardan foydalanishi;
2. rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yishi;
3. individual yondashuvni qo'llashi;
4. ijobiy psixologik muhit yaratishi kerak.

Masalan, imtihon paytidagi qo'rquv emotsiyasi motivatsiyaga ham ta'sir qiladi. Haddan tashqari qo'rquv insonning diqqatini pasaytiradi, xotira faoliyatini sustlashtiradi va natijada bilimni namoyon qilish qiyinlashadi. Me'yoriy darajadagi hayajon esa aksincha, insonni faolroq harakat qilishga undaydi.



### Xulosa

Motivatsiya inson psixik faoliyatining eng muhim harakatlantiruvchi omillaridan biri bo'lib, u shaxsning maqsad sari intilishini, faoliyatga kirishishini va uni davom ettirishini belgilab beradi. Psixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, motivatsiya faqatgina tashqi rag'batlar yig'indisi emas, balki insonning ichki ehtiyojlari, qadriyatlar va maqsadlari bilan chambarchas bog'liq murakkab psixologik jarayondir. Motivatsiya inson hayotining barcha bosqichlarida turlicha shakllanadi va rivojlanadi. Bolalik davrida tashqi ta'sirlar (ota-ona, o'qituvchi, mukofot va jazolar) yetakchi rol o'ynasa, o'smirlik va yoshlik davrida ichki qiziqish, o'zini anglash va mustaqil qaror qabul qilish motivatsiyaning asosiy manbalariga aylanadi. Kattalik davrida esa barqaror hayotiy maqsadlar,

ijtimoiy mas'uliyat va o'zini ro'yobga chiqarish motivatsiyaning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Shuningdek, motivatsiya shaxsning faoliyat samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kuchli motivatsiyaga ega insonlar qiyinchiliklarga qaramay o'z maqsadlaridan voz kechmaydi, aksincha, ularni yengib o'tish uchun qo'shimcha kuch topadi. Shu sababli, motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish ta'lim jarayoni, tarbiya va ijtimoiy muhitning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, motivatsiya inson hayotining harakatlantiruvchi "ichki dvigateli" bo'lib, u to'g'ri shakllantirilsa, shaxsning intellektual, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'oziev E. G'. – Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2003-yil
2. Karimova V. M. – Psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2002-yil
3. Rubinshteyn S. L. – Asosiy psixologiya tamoyillari, 1989-yil
4. Leontev A. N. – Faoliyat, ong, shaxs 1975-yil
5. Maslow A. H. – Motivatsiya va shaxsiyat nazariyasi (Motivation and Personality), 1954-yil
6. Deci E. L., Ryan R. M. – Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior, 1985-yil
7. Vygotsky L. S. – Oliy psik funksiyalar rivojlanishi, 1960-yil
8. Zimbardo P., Gerrig R. – Psychology and Life, 1999-yil